

BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAFAROV UCHQUN ISROILOVICH

QOVUSHOQ – ELASTIK MUXITDA JOYLASHGAN TO‘LDIRUVCHILI
SILINDRIK QOBIQDA GARMONIK TO‘LQINLAR TA’SIRDAN HOSIL
BO‘LGAN KUCHLANISHLAR – DEFORMATSIYA HOLATI
XUSUSIYATLARI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro - 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Technical
Sciences**

Safarov Uchqun Isroilovich

Qovushoq - elastik muxitda joylashgan to'ldiruvchili silindrik qobiqda garmonik to'lqinlar ta'sirdan hosil bo'lgan kuchlanishlar - deformatsiya holati xususiyatlari.....3

Сафаров Учкун Исроилович

Свойства напряженно - деформированного состояния цилиндрической оболочки с заполнителем, находящегося в вязкоупругой среде, возникающего под действием гармонических волн.....19

Safarov Uchqun Isroilovich

Properties of the stress-strain state of a cylindrical shell with filler, located in a viscoelastic medium, arising under the action of harmonic waves.....37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published

works.....41

BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAFAROV UCHQUN ISROILOVICH

QOVUSHOQ – ELASTIK MUHITDA JOYLASHGAN TO‘LDIRUVCHILI
SILINDRIK QOBIQDA GARMONIK TO‘LQINLAR TA’SIRDAN HOSIL
BO‘LGAN KUCHLANISHLAR – DEFORMATSIYA HOLATI
XUSUSIYATLARI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro - 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T3427 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik - texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) institut veb-saytida (www.bmti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Raxmonov Baxodir Sobirovich Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponenlar:	Mirzayev Ibraxim fizika-matematika fanlari doktori, professor Mavlonov To'lqin Mavlonovich Texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan ilmiy kengashning 2024 yil «15» aprel soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 461 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (200100, Buxoro shahri, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99895) 604-44-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» mart kuni tarqatildi.
(2024 yil «23» fevraldagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Teshaev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. (DSc)

Z.I.Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, f.-m.f.d. (DSc)

M.Z.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d. prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jadal rivojlanayotgan texnika va texnologiyalar davrida, yer osti inshootlarini takomillashgan hisoblash usullarini ishlab chiqish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida AQSh, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa rivojlangan mamlakatlarda seysmik hududlarda yer osti tunnel inshootlarini zilzila yuklanishlariga bardosh beradigan, mustahkamligi yuqori bo‘lgan va tejamkorlikni ta‘minlovchi konstruksiyalarni joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan yer osti quvurlari va kollektlaridagi buzilishlar, dinamik kuchlar va seysmik to‘lqinlar ta‘sirida binolar, to‘g‘onlar, ko‘priklar, yer osti inshootlarining talofat ko‘rishi yoki vayron bo‘lishini oldini olish, zilzilalar va kuchli portlashlar natijasida yuzaga keladigan to‘lqinlarni e‘tiborga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yer osti inshootlari sohasida qo‘llaniladigan materiallarning, shu jumladan ko‘p qatlamli murakkab fizik xossalarga ega bo‘lgan va muhit bilan aloqada bo‘lgan kompozit materiallardan tayyorlangan silindrik va sferik qobiqlarning mustahkamligini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy - tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada silindrik va sferik ko‘rinishdagi to‘ldiruvchili qobiqlarning qovushoq - elastiklik xususiyatini hisobga olib, kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini aniqlashning matematik modellarini va zamonaviy hisoblash usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ko‘p qatlamli to‘ldiruvchili kompozit silindrik qobiqlarda seysmik to‘lqin ta‘siri muammosining ilmiy asoslarini o‘rganish nazariyasini rivojlantirish, ilmiy asosini takomillashtirish, hisoblash usullarini ishlab chiqish uchun mazkur yo‘nalishlarda maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilish va texnika sohasida turli dinamik yuklanishlar ta‘siri ostida bo‘lgan to‘ldiruvchili qovushoq - elastik silindrik qobiqlarning kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini topish metodikasi va algoritmini yaratish hamda amaliyotga tadbiiq etish yuzasidan keng qamrovli chora - tadbirlari amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida, jumladan, «...ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash,...»¹ bo‘yicha muhim vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yer osti qurilish konstruksiyalarining mustahkamligi va raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun takomillashtirilgan matematik modellarni, samarali hisoblash usullarini ishlab chiqish hozirgi zamon mexanikasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60–sonli va 2020 yil 30 iyuldagi PQ–4794 - sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 515-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqlarga seysmik to‘lqin ta‘siri masalalari ilmiy nuqtai - nazardan quyidagi taniqli chet el olimlari tomonidan o‘rganilgan: Ilyushin A.A., Gorshkov A.G., Volmir A.S., Genkin M.D., Shemyakin Ye.I., Guz A.N., Uayt, Axenbax J.D., Troyanovskiy I.E., Kiyko I.A., Novichkov Yu.I., Slepyan L.I., Frolov K.V., Matveenkov V.P., Shardakov I.N va boshqalar.

Bu muammoni yechishda O‘zbekiston olimlari Urazbayev M.T., Shirinqulov T.Sh., Raxmatulin X.A., Kabulov V.K., Rashidov T.R., Muborakov Ya.N., Mardonov B.M., Sultanov K.S., Mamatqulov Sh.M., Mirsaidov M.M., Badalov F.B., Xojmetov G.X., Ishanxodjeyev A.A., Mavlonov T.M., Abdusattorov A.A., Safarov I.I., Xudaynazarov X.X., Yuldashev Sh.S., Abduqodirov S.A. va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shib, ko‘ndalang kesimi o‘zgarimas (yoki ba‘zi bir xususiy hollarda o‘zgaruvchan) bo‘lgan hollarda materialning reologik xususiyatlarini hisobga olib silindrik va sferik jismlarning dinamik xususiyatlarini xarakterlovchi parametrlarni hisoblash usullarini rivojlantirishgan. Yuqoridagilarga qaramay hozirgi vaqtda o‘z yechimini topmagan bir qator muammolar mavjud. Dissipativ bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin o‘tkazgichlardagi dinamik jarayonlarni o‘rganish deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar dinamikasini nazariy jihatdan qanchalik ko‘p boyitsa, uning energiya dissipatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi natijalari muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘pgina muammolarni yechishga imkon yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishlari Buxoro muhandislik - texnologiya institutining F-4-04 “Dinamik yuklanishlar ta‘siridagi suyuqlik oquvchi yupqa devorli yer osti quvurning egri uchastkalarining dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini tadqiq qilish metodlarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” ilmiy - texnologik rejasiga muvofiq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qovushoq - elastik yarim tekislikda joylashgan to‘ldiruvchili silindrik qobiqqa garmonik va noturg‘un to‘lqin yuklanishi

masalasini matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmlarini ishlab chiqish hamda sonli natijalar olish va olingan natijalarni tajriba natijalari bilan solishtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushoq - elastik yarim tekislikda joylashgan to'ldiruvchili silindrik qobiqqa garmonik to'lqinlar (tekis va silindrik) ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini topish masalasining matematik qo'yilishi, yechish usuli va algoritimini ishlab chiqish;

suyuqlikli qovushoq - elastik silindrik qobiqqa garmonik to'lqin yuklanishi natijasida kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatiga solishtirma baho berish;

to'ldiruvchili silindrik qobiqning zo'riqlariga Kirxgof-Lyav va Timoshenko gipotezalari qo'llanishiga solishtirma baho berish;

to'ldiruvchili silindrik qobiqqa noturg'un to'lqin yuklanganda kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatiga solishtirma baho berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida qovushoq-elastik muhitda joylashgan to'ldiruvchili (suyuqlikli yoki qovushoq elastik muhit) silindrik qobiq olingan.

Tadqiqotning predmetini uzun, to'ldiruvchili silindrik qobiqqa bo'ylama (yoki ko'ndalang) to'lqin yuklanishi va difraksiyasi xususiyatlarini hisobga olgan holda qovushoq - elastiklik nazariyasi masalalarini yechish usullarini rivojlantirish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarni yechish uchun matematik fizika va mexanika fanining usullaridan foydalanilgan (kompleks argumentli Bessel va Xankelning maxsus funksiyalari, Gauss, Myuller va mexanikaning kompleks amplituda usullari).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qovushoq - elastik yarim fazoda joylashgan to'ldiruvchili silindrik qobiqda garmonik to'lqinlar (tekis va silindrik) ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini topish masalasi matematik qo'yildi, yechish metodikasi va algoritmi kompleks argumentli Bessel va Xankelning maxsus funksiyalari, Gauss, Myuller usullariga asoslanib ishlab chiqilgan;

material qovushoqligi va qaytgan seysmik to'lqinlarni hisobga olib, ular ta'sirda hosil bo'ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini analitik ko'rinishdagi ifodalari topildi, Rjanitsin-Koltunov va Rabotnov yadrolari bo'yicha kontur kuchlanishlar uzun to'lqin sohasidagi 5-8% ga kamaytirishi, materiallarning qovushoqlik xossalarini hisobga olish ko'chish va kuchlanishlarning 10-15 % ga kamaytirishi aniqlangan;

qovushoq-elastik yarim fazoda joylashgan to'ldiruvchili silindrik qobiqning statsionar masalalarini yechishda irsiy Bolsman-Voltera integrali o'rniga muhandislar uchun sodda va qulay bo'lgan umumlashgan Kelvin-Foygt modelini qo'llash mumkinligi bu masalalarni yechishda turli klassik modellarni qo'llash asosida ko'rsatilgan;

yarim deformatsiyalanuvchi fazodagi silindrik qobiqlarga hajmiy bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin ta‘sirida hosil bo‘ladigan kuchlanishlar materiallarning qovushoqligi va qaytgan seysmik to‘lqinlarni hisobga olish asosida aniqlandi;

seismo-portlash to‘lqinlari ta‘sirida dala sharoitida amalga oshirilgan tajribalarda olingan kuchlanishlar va deformatsiya masofa (portlovchi modda va qobiq orasi)ning kichik (100m kam) qiymatlarida katta (46%) xatoliklarga, katta masofalarda esa 15% gacha xatoliklarga olib kelishi dala tajriba natijalari va nazariy analitik natijalar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko‘p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqlarga seysmik to‘lqin yuklanishi oqibatida hosil bo‘ladigan kuchlanishlar va deformatsiya holati uchun silindrik jismlar mustahkamligini hisoblash usullari ishlab chiqilgan;

ko‘p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqlarga seysmik spektral masalada kompleks chastotalarni chekli sondagi moddalarini topish muammosi hal qilingan;

ko‘p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqlarga seysmik bo‘ylama va ko‘ndalang yuklanish ostidagi deformatsiyalanuvchi muhit va silindrik qobiq bilan himoyalangan silindrik bo‘shliqdagi kuchlanishlar taqsimoti aniqlangan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Chegaraviy va spektral masalaning qo‘yilishi, keltirib chiqarilgan matematik munosabatlarning qat‘iyligi asosida yechish usullaridan foydalanish va boshqa olimlarning olgan yechimlari bilan taqqoslashlar orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati elastik muhitda joylashgan aniq parametrlarga ega bo‘lgan, quvur o‘tkazgichlarda to‘lqin yuklanishi va difraksiyasi nazariyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shish bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati elastik muhitda joylashgan aniq parametrlarga ega bo‘lgan, quvur o‘tkazgichlarda to‘lqin yuklanishi oqibatida hosil bo‘ladigan kuchlanishlar va deformatsiya holatining yangi qonuniyatlarini o‘rganish imkoniyatining paydo bo‘lishi, chegaraviy va spektral masalada kompleks chastotalarning chekli sondagi moddalarini topish muammosini hal qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qovushoq – elastik muhitda joylashgan to‘ldiruvchili silindrik qobiqqa garmonik to‘lqinlar ta‘siridan hosil bo‘lgan kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holati xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

eng kichik xususiy chastotani aniqlashning asimptotik formulasidan hamda asosiy xususiy chastotani aniqlashning nazariy-tajribaviy formulasidan Buxoro muhandislik–texnologiya institutida 2012-2016 yillarda bajarilgan F-4-14 raqamli “Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning tashqi kuchlari ta‘siridagi kuchlanish-deformatsiyalar holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2023 yil 24 fevraldagi № 02/01-86-403-son ma’lumotnomasi). Natijada bu suyuqlik oquvchi qovushoq elastik egri

chiziqli quvurning eng kichik xususiy chastotasini va asosiy xususiy chastotani aniqlashga hamda ularga mos keluvchi tebranish formalarini aniqlash imkonini bergan;

manbadan tarqaluvchi seysmik to'liqin egriligini hisobga olgan holda vibratsion yuklanish natijasida hosil bo'ladigan kuchlanish va deformatsiyani topish metodikasidan Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2016-2020 yillarda bajarilgan OT-F4-01 "Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2023 yil 11 martdagi № 1/01-831-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini toppish imkonini bergan;

seysmik to'liqinlarning bo'ylama va ko'ndalang uzunliklarini hisoblashda dissertatsiyada taqdim qilingan hisoblash usullaridan "Qishloqquretilishloyiha" MChJ, "Uzjamoaloyiha" MChJ, "Buxoro eksperimental loyihalash ilmiy tekshirish instituti" MChJ va "Qurilishloyiha" MChJlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2023 yil 9 noyabrdagi № 08-06/11700-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'ndalang va bo'ylama to'liqinlar yuklanganda silindrik qatlamdagi kuchlanishlar orasidagi farq 16-22 % bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy - amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari quyidagi ilmiy seminarlarda ma'ruza qilindi va muhokama etildi: Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (21 oktyabr 2023, Buxoro); Toshkent kimyo texnologiya instituti (12 iyun 2023, Toshkent), Navoiy davlat konchilik universiteti (11 noyabr 2023, Navoiy). Urganch davlat universiteti (25 dekabr 2023, Urganch)

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning

ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning abrobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik muhitda joylashgan silindrik qobiqda seysmik (garmonik) to'lqinlar ta'sirdan hosil bo'lgan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida, garmonik va noturg'un to'lqinlar ta'sirida chuqur o'rnatilgan silindrik (ko'ndalang kesimi turlicha bo'lgan) quvurlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan hamda adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan. Bu bob uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafi “Elastik muhitda joylashgan silindrik qobiqlarga to'lqin yuklanishi va difraksiyasini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili” deb nomlanadi. Unda seysmik zonada gruntli muhitda joylashgan silindrsimon qobiqlar, quvur o'tkazgichlarining tuzilmalari, metro tunnellari, gaz omborlari va boshqa yer osti inshootlarini zilzila bardoshliligini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili qisqacha keltirilgan. Bu bobning ikkinchi paragrafi “Quvur o'tkazgichlarni loyihalashda seysmik ta'sirlarni modellashtirish orqali hisobga olish” deb nomlangan. Seysmik hududlarda quvurlarni loyihalashning asosiy maqsadi zilzila zo'riqishlariga bardosh beradigan, xavfsiz va tejamkor bo'lgan va shu bilan birga boshqa tabiiy va texnogen xavf-xatarlarga qarshi kurashda qo'llaniladigan yechimlarga mos keladigan konstruksion yechimlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Uchinchi paragraf “Yupqa yotqizilgan tunnelling seysmik hisobi” deb nomlanadi. Unda seysmik yuklanishlarning yupqa devorli tunnelling hisoblashga bag'ishlangan adabiyotlar tahlil etilgan. Ularni hisoblashda fazoviy holatini hisobga olish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Seysmik to'lqin ta'sirida qovushqoq-elastik muhitdagi ko'p qatlamli silindrik qobiqning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati masalasining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida masalalarning matematik qo'yilishi va yechish metodikasi keltirilgan. Bu bobda seysmik to'lqin ta'siridagi qovushqoq elastik muhitdagi silindrik qobiqning kuchlanganlik-deformatsiya holatini topish va tahlil qilish muammosini qo'yilishi ko'rib chiqilgan.

Yupqa silindrik qobiqlar uchun Kirxgof-Lyav gipotezasi yoki Timoshenko S.P. gipotezasi o'rinli bo'ladi. Qobiqning harakat differensial tenglamasi, qalin silindrlar uchun deformatsiyalanuvchan jismlar mexikasining qovushqoq - elastiklik nazariyasining tenglamalaridan foydalanildi. U holda ko'p qatlamli qobiq (yoki qalin devorli silindr)lardan tashkil topgan mexanik sistemaning harakat tenglamalari quyidagicha bo'ladi.



1-rasm. Deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan ko‘p qatlamli silindrik qobiqqa to‘lqin yuklanishining hisob sxemasi

$$(\tilde{\lambda}_j + 2\tilde{\mu}_j) \text{grad div } \vec{u}_j - \tilde{\mu} \text{rot rot } \vec{u}_j + \vec{b}_j = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{u}_j}{\partial t^2}, \quad (j=1, 2, \dots, N). \quad (1)$$

Agar mexanik sistema silindrik qobiqlardan tashkil topgan bo‘lsa, u holda uning harakat differensial tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$L\tilde{E}\vec{u} = \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0 h_0} \vec{p} + \rho_0 \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0} \left(\frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2} \right), \quad (k=1, 3, \dots, N-1), \quad (2)$$

$$\Delta \phi_0 - \frac{1}{c_\infty^2} \ddot{\phi}_0 = 0. \quad (3)$$

Agar silindrik qatlam qovushoq suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, u holda Nave-Stoks tenglamasidan foydalaniladi. Suyuqlik zarralarini harakati uchun quyidagi munosabat olingan

$$\vec{g} = \frac{\partial}{\partial t} \left[\vec{\nabla} \psi + \vec{\nabla} \times \vec{e}_3 \chi_1 + \vec{\nabla} \times (\vec{\nabla} \times \vec{e}_3 \chi_2) \right];$$

$$p = \rho_0 \left(\frac{\lambda_1 + 2\mu}{\rho_0} \Delta - \frac{\partial}{\partial t} \right) \frac{\partial}{\partial t} \psi; \quad \frac{\partial \rho}{\partial t} = \frac{\rho_0}{c_0^2} \left(\frac{\lambda_1 + 2\mu}{\rho_0} \Delta - \frac{\partial}{\partial t} \right) \frac{\partial}{\partial t} \psi. \quad (4)$$

Bu yerda $\vec{g}_r(\vartheta_r, \vartheta_\theta, \vartheta_z)$ - suyuqlik zarrasining tezligi, r - silindrik qatlamni deformatsiyalanishi natijasida yuzaga keladigan tezlik parametri, μ - qovushoqlik koeffitsiyenti, $\lambda_1 = -\frac{2}{3}\mu$ - ikkinchi qovushoqlik koeffitsiyenti, ψ, χ_1, χ_2 - potensial funksiyalar quyidagi to‘lqin tenglamalarini qanoatlantiradi:

$$\left[\left(1 + \frac{\lambda_1 + 2\mu}{\rho_0} \frac{\partial}{\partial t} \right) \Delta - \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right] \psi = 0, \quad \left(\frac{\partial}{\partial t} - \nu \Delta \right) \chi_1 = 0; \quad \left(\frac{\partial}{\partial t} - \nu \Delta \right) \chi_2 = 0. \quad (5)$$

Agar silindrik inshoot qatlamlardan tashkil topgan bo‘lsa, u holda uning harakat tenglamalari (2) ko‘rinishda bo‘ladi. Quyidagicha kontakt va chegaraviy shartlar qo‘yiladi:

1. Agar silindrik jism qatlamlardan tashkil topgan bo'lsa, u holda uning harakat tenglamalari (1) ko'rinishda bo'ladi. Qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik yoki sirpanuvchanlik sharti qo'yiladi

$$r = a_k: \quad \sigma_{rrk} = \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{r\theta(k+1)}; \quad \sigma_{rzk} = \sigma_{rz(k+1)}; \\ u_k = u_{k+1}; \quad \vartheta_k = \vartheta_{k+1}; \quad w_k = w_{k+1}. \quad (6)$$

2. Qatlamlar orasida sirpanuvchanlik sharti (qatlamlar orasida qarshilik bo'lmasa) qo'yiladi

$$r = a_k: \quad \sigma_{rrk} = \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{rzk} = 0; \\ \sigma_{r\theta(k+1)} = \sigma_{rz(k+1)} = 0; \quad w_k = w_{k+1}. \quad (7)$$

3. Agar $r = a_1$ birinchi qatlam suyuqliksiz yoki to'ldiruvchisiz bo'lsa, u holda kuchlanishlardan ozod bo'lish sharti qo'yiladi:

$$r=a_k: \quad \sigma_{rrN} = 0; \quad \sigma_{r\theta N} = 0; \quad \sigma_{rzn} = 0. \quad (8)$$

Agar inshootdan radial koordinata cheksizlikka intilsa, u holda bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiali Zommerfeldning yutilish shartini qanoatlantiradi

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\varphi = const, \quad \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} - ik\varphi \right) = 0 \\ \lim_{r \rightarrow \infty} r\psi = const, \quad \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} - ik_2\psi \right) = 0 \quad (9)$$

Muhitda tarqalayotgan silindrik to'lqinlar tekis deformatsiya holati uchun quyidagicha bo'ladi

$$\varphi_N^{(p)} = \varphi_0 i\pi \sum_{n=1}^{\infty} [(-1)^n E_n J_n(\alpha_N r) H_n^{(1)}(\alpha_N z)] \cos n\theta e^{-i\omega t}. \quad (10)$$

To'ldiruvchili silindrik qobiq va uni o'rab turuvchi muhitning xususiy hosilali differensial tenglamasini ko'chish vektorini bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiallari orqali ifodalaymiz:

$$\vec{u}_j = \text{grad} \phi_j + \text{rot} \vec{\psi}_j, \quad \text{div} \vec{\psi}_j = 0. \quad (11)$$

Asosiy masalalar elastiklik nazariyasining tekis deformatsiya holati masalasiga olib kelinadi. Shuning uchun $\vec{\psi}_j(\psi_{zj}, 0, 0)$ bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiallari quyidagi integro - differensial tenglamalarni qanoatlantiradi:

$$\Gamma_{\lambda\mu\kappa} \nabla^2 \varphi_k - \frac{1}{c_{p0k}^2} \frac{\partial^2 \varphi_k}{\partial t^2} = 0; \quad \Gamma_{\mu\kappa} \nabla^2 \psi_z - \frac{1}{c_{s0k}^2} \frac{\partial^2 \psi_z}{\partial t^2} = 0; \quad (12)$$

$$\varphi_j = \sum_{n=0}^{\infty} [A_{nj} H_n^{(1)}(\alpha_j r) + A'_{nj} H_n^{(2)}(\alpha_j r)] \cos n\theta e^{-i\omega t};$$

$$\psi_j = \sum_{n=0}^{\infty} [B_{nj} H_n^{(1)}(\beta_j r) + B'_{nj} H_n^{(2)}(\beta_j r)] \sin n\theta e^{-i\omega t}; \quad j = 1, 2, \dots, N-1$$


$$\varphi_N = \sum_{n=0}^{\infty} [C_{nN} H_n^{(1)}(\alpha_N r) + D_{nN} H_n^{(2)}(\alpha_N r)] \cos n\theta e^{-i\omega t}, \quad (13)$$

$$\psi_N = \sum_{n=0}^{\infty} [M_{nN} H_n^{(1)}(\beta_N r) + L_{nN} H_n^{(2)}(\beta_N r)] \sin n\theta e^{-i\omega t},$$

$$\varphi_0 = \sum_{n=0}^{\infty} [K_{n0} J_n(\alpha_0 r) + K'_{n0} N_n(\alpha_0 r)] \cos n\theta e^{-i\omega t},$$

bunda n - butun son; ω - erkin tebranish masalasi o'rganganda kompleks chastota, majburiy tebranish o'rganilganda haqiqiy kattalik deb olinadi, bunda $A_{nj}, A'_{nj}, B_{nj}, B'_{nj}, C_{nj}, D_{nj}, L_{nN}, M_{nN}, K_{nN}$ va K'_{nN} - ixtiyoriy o'zgarmas kattaliklar, bo'lib chegaraviy shartlardan topiladi; $H_n^{(1)}(\alpha_j r)$ va $H_n^{(2)}(\alpha_j r)$ - mos ravishda Bessel va Xankel funksiyalari. $H_n^{(1,2)}(\alpha r) = J_n(\alpha r) \pm iN_n(\alpha r)$. To'ldiruvchili silindrik qobiqqa kuchlanishlar va deformatsiya orasidagi munosabat Kelvin - Foygtning modeliga (2 rasm) asosan yozilsa quyidagicha bo'ladi

$$\sigma = E(\omega) = [E'(\omega) + iE''(\omega)]\varepsilon_0 \quad (13a)$$



2 rasm. Umumlashgan Kelvin – Foygt modeli

Rjanitsin-Koltunov yadrosi asosida va yuqorida keltirilgan umumlashgan Kelvin-Foygt modeli asosida olingan natijalar 2 rasmda keltirilgan. Agar muhitda tekis formadagi to'lqin tarqalsa, u holda kuchlanish amplitudasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Ixtiyoriy o'zgarmaslarni topish uchun chegaraviy shartlar (6) - (9) dan foydalansak bir jinsli bo'lmagan kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz

$$[C_2(c_{pj}, c_{sj}, R_{Ej}, a_j)]\{q\} = \{P_1\}, \quad (14)$$


bunda $\{q\}$ -vektor ustun bo'lib, ixtiyoriy o'zgarmaslardan tashkil topgan; $\{R\}$ -tashqi tushadigan to'lqin ta'siridagi vektor; $[C_1]$ -kvadrat matritsa, elementlari Bessel va Xankel funksiyalaridan tashkil topgan. Kontur kuchlanishi $\sigma_{\theta\theta}$ ni hisoblash uchun

$$\sigma_{\theta\theta}|_{r=0} = (Re + iJ_m) e^{-i\omega r} = \sqrt{Re^2 + J_m^2} e^{-i(\omega r - \gamma)}, \quad \gamma = \arctg \frac{J_m}{Re} \quad (15)$$

Shunday qilib, ikkinchi bobda garmonik to'lqin yuklanishi (va difraksiyasi) masalalarini yechishda ko'chishlar orqali ifodalangan Lamé tenglamasidan foydalanib, ko'chish potensialari orqali ifodalangan xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasi olindi va analitik yechimni Gauss, Laplas va maxsus funksiyalar usullari asosida olish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan. To'ldiruvchili silindrik qobiqqa kuchlanishlar va deformatsiya orasidagi munosabat Kelvin-Foygtning modeliga asosan olindi.

Dissertatsiyaning **“To'ldiruvchili qovushqoq - elastik silindrik qobiqqa bo'ylama (yoki ko'ndalang) to'lqin yuklanishi va difraksiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida qovushqoq-elastik muhitda joylashgan to'ldiruvchili (yoki suyuqlikli silindrik) qobiqqa bo'ylama yoki ko'ndalang to'lqin yuklanishi va difraksiyasi masalasi yechiladi. Bu bob ikkita paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda suyuqlikli silindrik qobiqqa bo'ylama (yoki ko'ndalang) to'lqin

yuklanishi o'rganilgan. Ikkinchi paragrafda sonli natijalar va ularning tahlili keltirilgan.



3– rasm. Suyuqlikli silindrik qobiq va unga tekis to‘lqin tushishining hisob sxemasi

Sonli natijalar 3.1 va 3.2-jadvalga keltirilgan ($D/\lambda = 0.25$). Natijalar o‘lchamsiz parametrlarda olingan.

3.1-jadval. Suyuqlikli qatlamda bo‘ylama to‘lqin ta‘siridagi radial kuchlanishning o‘zgarishi ($\theta = 90^0$)


To‘lqin uzunligi (D/λ)	0.10	0.20	0.40	0.60	0.70
Bo‘sh qatlam σ_{rr} (elastik)	1.4423	1.6172	1.7511	1.6218	1.5550
Bo‘sh qatlam σ_{rr} (Rjanitsin – Koltunov yadrosi)	1.3362	1.4687	1.5985	1.4936	1.4068
Bo‘sh qatlam σ_{rr} (Rabotnov yadrosi)	1.2151	1.3407	1.4819	1.3367	1.2842
Suyuqlikli qatlam σ_{rr} (Rjanitsin – Koltunov yadrosi)	1.4535	1.7278	1.7421	1.6747	1.5885
Suyuqlikli qatlam σ_{rr} (Rabotnov yadrosi)	1.3743	1.6732	1.6862	1.5582	1.5183

3.2-jadval. Suyuqlikli qatlamda ko‘ndalang to‘lqin ta‘siridagi radial kuchlanishning o‘zgarishi ($\beta_1 R_1 = 0.45$)


Burchak: θ	0^0	45^0	90^0	135^0	180^0
Bo‘sh qatlam σ_{rr} (elastik)	1.9531	1.9751	1.6521	1.9701	1.8847
Bo‘sh qatlam σ_{rr} (Rjanitsin – Koltunov yadrosi)	1.8483	1.8214	1.5397	1.8625	1.7065
Bo‘sh qatlam σ_{rr} (Rabotnov yadrosi)	1.7181	1.6942	1.4321	1.7322	1.5871
Suyuqlikli qatlam σ_{rr} (Rjanitsin – Koltunov yadrosi)	2.0483	2.9214	1.7397	2.9625	2.0886
Suyuqlikli qatlam σ_{rr} (Rabotnov yadrosi)	1.9054	2.7172	1.6120	2.7552	1.9424

Bo‘ylama to‘lqin yuklanishida maksimal radial kuchlanish, qatlamning $\theta = 90^\circ$ va 270° burchak nuqtalarida topildi. Xuddi shunday maksimal kuchlanish ko‘ndalang to‘lqin yuklanishida $\theta = 45^\circ$ va 135° burchaklarida erishadi. Materiallarning qovushoqlik xossalarini hisobga olish ko‘chish va kuchlanishlarni 10–15% kamaytirishga imkon beradi. Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, qisqa to‘lqinlar sohasida rezonans hodisasiga o‘xshash holat yuz berishi mumkin ekan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Seysmik to‘lqinlar va ular ta’siridagi silindrik qobiqning kuchlanganlik – deformatsiyalanganlik holatining qiyosiy tahlili**” deb nomlanadi. **Portlash va statsionar to‘lqinlarning gruntnda tarqalishi va yer osti inshootlariga ta’siri** deb nomlangan paragrafda o‘tgan asrning 80-yillarida O‘zbekiston FA mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari tomonidan portlash to‘lqinlarini gruntnda tarqalish qonuniyatini o‘rganish hamda ularning yer osti inshootlariga ta’sirini tadqiq etish borasida akademik Ya.N. Muborakov rahbarligida asl naturaviy dala sharoitida tadqiqotlar o‘tkazilgan. Tajriba maydonida sinalgan yer osti yupqa devorli qobiqsimon silindrik inshootlar joylashishi hamda portlovchi moddalar joylashish nuqtalari 4-rasmda keltirilgan.



4 - rasm. Tajriba maydonida sinalayotgan yer osti inshootlari joylashishi hamda yer osti portlashlari amalga oshirilish nuqtalari sxematik ko‘rinishi



5 - rasm. Sinalayotgan inshootlarga tenzoelementlar va bosim datchiklari(a) hamda seysmopriyomniklarning (b) joylashishi sxemasi: 1- halqali va bo‘ylama deformatsiyani o‘lchash uchun mo‘ljallangan tenzoelementlar; 2- bosim datchigi.

Silindrik trubaning 1 va 2 nuqtalarida bo‘ylama, ko‘ndalang va vertikal ko‘chishlar, 3 nuqtasida esa bo‘ylama ko‘chish, tezlik va tezlanish kabi kinematik parametrlar qayd qilingan. Gruntning uch o‘q bo‘ylab fazoviy ko‘chishlari

seismometrlar yordamida bevosita sinalayotgan yer osti inshootlariga maksimal yaqin nuqtada, grunt sirtidan 1 m. chuqurlikda qayd qilingan. Sinalayotgan yupqa devorli qobiqsimon yer osti inshooti - truba yer sirtidan 5,0 m. chuqurlikka joylashtirilgan.

Ma'lumki, yer osti inshootlarini seysmik to'liqlar: bo'ylama va ko'ndalang to'liqlar ta'siriga izotrop muhitda o'zaro perpendikulyar yo'nalishlarda vujudga keladigan siqilish va siljish kuchlanishlari quyidagi tenglamalar yordamida hisoblash mumkin, ya'ni


$$\sigma_y^{(x)} = \pm \frac{1}{2\pi} AK_1 \gamma C_p T_0; \quad \sigma_y^{(x)} = \frac{V_0}{1 - \nu_0} \sigma_x^{(x)}; \quad \tau_{xy}^{(x)} = \frac{1}{2\pi} AK_1 \gamma C_s T_0; \quad (16)$$

bu yerda A- me'yoriy hujjatlardan olinadigan seysmik ta'sir intensivligiga mos keluvchi koeffitsiyent; K_1 -inshoot shikastlanish darajasini hisobga oluvchi koeffitsiyent; γ -muhit grundi hajmiy og'irligi, T/m³; C_p - mazkur grunt bo'ylama to'liqlar tarqalish tezligi, m/sek; C_s -mazkur muhit gruntida ko'ndalang to'liqlar tarqalish tezligi, m/sek; T_0 - grunt zarralarining tebranma harakat davri, sek.; ν_0 - muhit grundi uchun Puasson koeffitsiyenti.

Asl naturaviy dala tajribalar natijalarini qayta ishlash natijasida Ya. N. Muborakov va uning o'quvchilari tomonidan quyidagi bog'lanish taklif etilgan:

$$\mathcal{G} = 325,24 R_{np}^{-1,45553} \quad \text{yoki} \quad \mathcal{G} = 325,24 \left(\frac{\sqrt[3]{C}}{R} \right)^{1,46} \quad (17)$$


Bu to'liqin tarqalish tezligi bo'yicha olingan natijalar boshqa olimlarning natijalari bilan solishtirilgan. 6-rasmda grunt zarralarining ko'chishlar tezligini masofaga bog'liq o'zgarishi keltirilgan.



6-rasm. Turli keltirilgan masofalarda qayd qilingan grunt zarralari harakat tezliklari yozuvlari (kontrol nuqtasi, portlash nuqtasiga yaqin nuqta).

Shunday qilib, bu paragrafda muhit grunting seysmik - portlash to'liqlari ta'siridan harakatini ifodalovchi parametrlari tahlil qilindi.

Seysmik-portlash va statsionar to'liqlarning muhitga va yer osti inshootlarga ta'sirini nazariy-tajribaviy o'rganish. Shunday ishlardan biri asl naturaviy dala tajribalarida seysmik-portlash to'liqlari muhitda tarqalganda grunt vujudga keladigan kuchlanishlar tenzometrlar yordamida bevosita qayd qilinganligi keltirilgan.




7-rasm. Gruntda seysmik - portlash to'liqlari tarqalganda muhitda vujudga keladigan kuchlanishning keltirilgan masofaga bog'liqligi: 1-Sh.G. Napedvaridze metodikasi asosida olib borilgan hisob natijalari asosida qurilgan grafik; 2-L.D. Landau formulasi asosida hisoblash asosida olingan grafik; 3-M. Saydimuratov tajribalari natijalari; 4-I. Ya. Dorman metodikasi asosida hisoblash natijalari.

Nazariy va tajribaviy olingan silindrik qobiqqa bo'ylama to'liqin ta'siridan inshootda vujudga keladigan kuchlanishlarni taqqoslash natijalari 4.3-jadvalda keltirilgan.


4.3-jadval

Kuchlanishlar	Eksperemental natijalar	Nazariy natijalar	Eksperemental natijalar	Nazariy natijalar
	$\theta = \pi / 4$	$\theta = \pi / 4$	$\theta = \pi / 2$	$\theta = \pi / 2$
$\sigma_{\theta} (MPa)$	-3.0121	-1.3986	-3.8901	-2.0274
$\sigma_r (MPa)$	0.3327	0.2931	0.4435	0.3387
$\tau (MPa)$	0.3473	0.2067	0.4573	0.2567

Quyidagi 8 va 9 - rasmlarda shunday natijalardan ayrimlari keltirilgan bo'lib, bu yerda tajribada seysmik - portlash to'liqlari ta'siridan sinalayotgan yer osti inshootida vujudga kelgan radial kuchlanishlar epyuralari bayon etilgan. Bu rasmda real vaqtda yozib olingan kuchlangan - zo'riqqan holatining $\tau = 20 \cdot 10^{-3}$ sek. vaqtda vujudga kelgan epyuralar ko'rinishi yoritilgan.



8-rasm. Turli masofalarda bo'ylama yo'nalishda amalga oshirilgan portlashlar seysmik - portlash to'liqlari ta'siridan silindrik qobiqsimon yer osti inshootlarida vujudga keladigan radial kuchlanish epyuralari ko'rinishi ($\tau = 20 \cdot 10^{-3}$ sek.).



9-rasm. Turli masofalarda amalga oshirilgan portlashlar seysmik - portlash to'liqlari ko'ndalang yo'nalishdagi ta'siridan silindrik qobiqsimon yer osti inshootlarida vujudga keladigan halqasimon kuchlanish epyuralari ko'rinishi ($\tau = 30 \cdot 10^{-3}$ sek.).

UMUMIY XULOSALAR

1. Qovushoq elastik muhitda joylashgan to'ldiruvchili silindrik qobiqqa garmonik to'lqinlar (tekis va silindrik) ta'siridan hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatini ifodalovchi chiziqli xususiy hosilali integro - differensial tenglamalar sistemasi olindi. Ularni qanoatlantiruvchi chegaraviy va boshlang'ich shartlar keltirildi. Masalalarning matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqildi;

2. Silindrik qobiqning suyuqlikli ichki sirtida maksimal kuchlanish kontur va radial kuchlanishlar bo'lishi topildi. Ko'ndalang to'lqin ta'sirida bo'lgan kontur kuchlanishlari bo'ylama to'lqin ta'siridagi kontur kuchlanishlaridan 18 % ko'p bo'lishi aniqlandi.

3. Suyuqlik bilan to'ldirilgan quvurlar uchun ikki xil Rjanitsin - Koltunov va Rabotnov yadrolari bo'yicha olingan natijalarni solishtirish radial kuchlanishlar farqi, uzun to'lqin sohasida 5-8 % gacha bo'lar ekan. Materiallarning qovushoqlik xossalari hisobga olish ko'chish va kuchlanishlarni 10-15 % kamaytirishga imkon beradi.

4. Materiallarning qovushoqligi umumlashgan Kelvin - Foygt modeli orqali ifodalanganda garmonik - seysmik to'lqin ta'sirida inshootda va muhitda hosil bo'lgan kuchlanishlar Rjanitsin - Koltunov yadrosi qo'llanganda hosil bo'ladigan kuchlanishlardan, uzun to'lqinlar sohasida, 10 % gacha ko'p bo'lar ekan. Qisqa to'lqinlar sohasida 20 – 30 % ko'p bo'lishi mumkin ekan.

5. To'ldirilgan quvurlar uchun ikki xil Rjanitsin - Koltunov va Rabotnov yadrolari bo'yicha olingan natijalarni solishtirish keltirilgan. Rabotnov yadrosi bo'yicha olingan kuchlanishlar uzun to'lqin sohasida 5-7 % kam bo'lishi topildi.

6. Yupqa qobiq uchun Timoshenko S.P. va Krixgof - Lyav gipotezalari qo'llanganda kuchlanishlar orasidagi farq, uzun to'lqinlar sohasida – 10 % gacha, qisqa to'lqinlar sohasida - 15 % gacha bo'lishi topildi;

7. To'ldiruvchili silindrik qobiqqa ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlar yuklanganda kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holatiga va zo'riqishlarga solishtirma baho berildi. Ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlar yuklanganda silindrik qatlamdagi kuchlanishlar orasidagi farq 16-22 % bo'lishi topildi;

8. Agar silindrik qobiq va materiallarning qovushoqligi hisobga olinmasa, ya'ni elastik muhitdagi ideal suyuqlikli bo'shliqning radial kuchlanishlari bo'yicha olingan natijalar, dissertatsiyada Pao Y.H. va Mow S.S. olgan natijalar bilan solishtirildi. Natijalarda 10 % - 15 % gacha farq bo'lishi topildi. Bu natijalar farqi Pao Y.H. va Mow S.S. ning natijalaridan maxsus funksiyalar bo'yicha asimptotik formulalar bilan ifodalanishi orqali izohlanadi. Ishlab chiqilgan algoritmnining to'g'riligi xususiy masalalar yechish va ma'lum bo'lgan natijalar bilan solishtirishlar orqali isbotlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ СОСТАВЛЕННЫЙ НА ОСНОВЕ
НАУЧНОГО СОВЕТА PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО - ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

САФАРОВ УЧКУН ИСРОИЛОВИЧ

**СВОЙСТВА НАПРЯЖЕННО - ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ
ЦИЛИНДРИЧЕСКОЙ ОБОЛОЧКИ С ЗАПОЛНИТЕЛЕМ,
НАХОДЯЩЕГОСЯ В ВЯЗКОУПРУГОЙ СРЕДЕ, ВОЗНИКАЮЩЕГО
ПОД ДЕЙСТВИЕМ ГАРМОНИЧЕСКИХ ВОЛН**

01.02.04 - Механика деформируемого твердого тела

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.1.PhD/Т3427.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно -технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Бухарского инженерно - технологического института (www.buxmti.uz) и на Информационно - образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net)

Научный руководитель:	Рахмонов Баходир Собирович Доктор технических наук (DSc), доцент
Официальные оппоненты:	Мирзаев Ибрахим Доктор физико-математических наук, профессор Мавлонов Тулкин Мавлонович Доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	Наманганский инженерно-строительный институт

Защита диссертации состоится «15» апреля 2024 г. в «10:00» часов на заседании разового Научного совета созданного на основе Научного совета PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 при Бухарском инженерно-технологическом институте по адресу: 200100, г.Бухара, ул. К. Муртазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84; факс: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрирована за № 461). (Адрес:Бухарская область, 200100, г. Бухара, ул. К. Муртазаева, 15. Тел.: (+99895) 604-44-70).

Автореферат диссертации разослан «29» марта 2024 года.
(протокол рассылки №1 от «23» февраля 2024 г.)

М.Х.Тешаев

Председатель разового научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.(DSc)

З.И. Болтаев

Ученый секретарь разового научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н. (DSc)

М.З. Шарипов

Председатель разового научного семинара при разовом научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

Введение (аннотация к докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В эпоху бурно развивающейся техники и технологий в мире разработка передовых методов расчета подземных сооружений занимает одно из ведущих мест. Во всем мире, в США, Франции, Китае, Японии, Российской Федерации и других развитых странах, в сейсмических регионах рекомендуется внедрять конструкции, выдерживающие сейсмические нагрузки, обладающие высокой прочностью и обеспечивающие экономичность в подземных тоннельных сооружениях. В связи с этим для предотвращения повреждения или разрушения подземных трубопроводов, коллекторов, зданий, плотин, мостов, подземных сооружений под воздействием динамических сил и сейсмических волн, землетрясений и сильных взрывов важно учитывать возникающие волны.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на исследование прочности материалов, применяемых в конструкциях подземных сооружений, в том числе цилиндрических и сферических оболочек из композиционных материалов со сложными физическими свойствами, состоящих из нескольких слоев и контактирующих с окружающей средой. В связи с этим с учетом вязкоупругих свойств цилиндрических и сферических оболочек-заполнителей проводятся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование математических моделей и современных методов расчета для определения напряженно-деформированного состояния.

В нашей Республике в области строительства и машиностроения проводятся широко масштабные мероприятия в связи с созданием и внедрением методики и алгоритма нахождения напряженно-деформированного состояния вязкоупругих цилиндрических оболочек с заполнителями под воздействием различных динамических нагрузок и достигнуты определенные результаты. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года "Об утверждении Концепции развития науки на период до 2030 года", в том числе "...широкое использование научно-инновационного потенциала, приоритетные направления систематической реформы науки являются важными задачами выявления, подготовки высококвалифицированных кадров с современными знаниями и независимым мышлением в будущем..."². При реализации этих задач, среди прочего, большое значение в современной механике имеет разработка усовершенствованных математических моделей и эффективных методов расчета, обеспечивающих прочность и конкурентоспособность подземных сооружений.

Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 "О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы" и от 30 июля 2020 года № ПП-4794 – «О мерах по коренному совершенствованию

² Указ Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № ПФ-6097 "Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года"

системы обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан” и постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 августа 2020 года № 515 “О дальнейшем совершенствовании государственной системы предупреждения и реагирования на чрезвычайные ситуации в Республике Узбекистан” и другими нормативно-правовыми актами, касающимися данной деятельности. Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации поставленных в документах задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

Степень изученности проблемы. Проблемы воздействия сейсмических волн на многослойные композитные цилиндрические оболочки с жидкостью изучались с научной точки зрения следующими выдающимися зарубежными учеными: Илюшин А.А., Горшков А.Г., Волмир А.С., Генкин М.Д., Шемякин Э.И., Гуз А.Н., Уайт, Ахенбах Ж.Д., Трояновский И.Е., Кийко И.А., Новичков Ю.И., Слепян Л.И., Фролов К.В., Матвеев В.П., Шардаков И.Н. и другими.

При решении этой проблемы узбекские ученые Уразбаев М.Т., Ширинкулов Т.Ш., Рахматулин Х.А., Кабулов В.К., Рашидов Т.Р., Мубораков Я.Н., Мардонов Б.М., Султанов К.С., Маматкулов Ш.М., Мирсаидов М.М., Бадалов Ф.Б., Хожметов Г.Х., Ишанходжаев А.А., Мавлонов Т.М., Абдусатторов А.А., Сафаров И.И., Худайназаров Х.Х., Юлдашев Ш.С., Абдуқодиров С.А. внося свой вклад, разработали методы расчета параметров, характеризующих динамические свойства цилиндрических и сферических тел с учетом реологических свойств материала, в случаях, когда поперечное сечение постоянно (или, в некоторых частных случаях, переменное).

Несмотря на вышеприведенные, в настоящее время существует ряд проблем, которые не нашли своего решения. Поскольку исследование динамических процессов в диссипативно-неоднородных волноводах теоретически обогащает динамику деформируемых твердых тел, его новые результаты, связанные с диссипацией энергии, позволяют решить многие задачи, имеющие важное практическое значение.

Связь темы диссертации с исследовательскими планами высшего учебного заведения, в котором выполнялась диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках плана исследований Бухарского инженерно-технологического института и фундаментального научно-технического проекта Ф-4-04 “Развитие теории и разработка методов исследования динамического напряженно-деформированного состояния криволинейных участков тонкостенных подземных трубопроводов с протекающей жидкостью при воздействии динамических нагрузок”.

